

OROL DENGIZI

Xodjaniyazova Shoxsanam Ergash qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti

Tabiiy fanlar fakulteti Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari yo'nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada qadimdan O'rta osiyoning eng sersuv dengizlaridan bo'lgan, hozirga kelib cho'lga aylanib borayotgan Orol dengizi, uning tarixi maydoni haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *O'rta Osiyo, Orol dengizi qurishi, orol dengizi suvi, Qoog'iston, Amudaryo, Sirdaryo, daryolar, Viktoriya ko'li.*

Geografik o'rni. Turon tekisligining markaziy qismida, Orol dengizi — O'rta Osiyodagi eng katta berk ko'l. Ma'muriy jihatdan Orol dengizining yarmidan ko'proq janubi-g'arbiy qismi O'zbekiston, shimoli-sharqiy qismi Qozog'iston hududida joylashgan. O'tgan asrning 60-yillarigacha Orol dengizi maydoni orollari bilan o'rtacha 68,0 ming km² ni tashkil etgan. Kattaligi jihatidan dunyoda to'rtinchi (Kaspiy dengizi, Amerikadagi Yuqori ko'l va Afrikadagi Viktoriya ko'lidan keyin), Yevrosiyo materigida (Kaspiydan keyin) ikkinchi o'rinda edi. Dengiz shimoli-sharqdan janubi-g'arbgacha cho'zilgan, uz. 428 km, eng keng joyi 235 km (45° shq.) bo'lgan.

Paydo bo'lish tarixi. Orol va Orolbo'yi haqidagi dastlabki ma'lumotlarni miloddan avvalgi II asrda yashagan geograf Klavdiy Ptolemey yozib qoldirgan. U tuzgan „Dunyo xaritasi“da hozirgi Orol dengizi o'rnida „Oks“ ko'li tasvirlangan. IX asrda yashagan arab olimi Ibn Xurdobex Amu-Sirdaryo „Kurdor“ ko'liga quyilgan desa, X asrda yashagan Al-Mas'udiy hozirgi Orol ko'lini „Jurjoniya“, Beruniy esa „Xorazm“ ko'li deb atagan. Fransuz geografi Delil 1723-yili tuzgan xaritasida Orol botig'ida joylashgan suv havzasini birinchi marta „Orol“ deb nomlagan.

Iqlimi, tuproqlari, o'simliklari va hayvonot dunyosi. Orol tabiiy geografik okrugi kontinental iqlim xususiyatiga ega bo'lib, qishi sovuq, yozi issiq va quruq, yillik o'rtacha harorat 7,5-10,5°C ni tashkil etadi. Qishda okrug shimoli-sharqiy va shimoliy sovuq va quruq shamollar ta'sirida bo'lib, harorati pasayib ketadi. Orol okrugida yanvarning o'rtacha harorati Mo'ynoqda –5 –7°C ni tashkil etadi.

Orol dengizining o'rnida suvdan bo'shagan hududlarining tuproq qoplami o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Ya'ni bu pziga xoslikni tuproqda juda ko'p miqdorda tuzlarning yig'ilishida ko'rish mumkun. 80-90% tuproqlar o'ta darajada sho'rlangan.

O'simlik dunyosi bevosita tuproq bilan bog'liq bo'lganligi uchun cho'lga xos o'simliklar o'sadi. Qora saksovul, cherkez, yulg'un, sho'ralar keng tarqalgan. Hayvonlar ham cholga hos bo'lgan ko'plab sudralib yuruvchilar va kemiruvchilar yashaydi.

Orol suv sathining pasayishi va salbiy oqibatlari va ko'rilayotgan chora-tadbirlar.

So'nggi 200 yil (1961-yilga qadar) ichida Orol dengizining suv sathi uch marta ko'tarilib, ikki marta pasaygan. Orol havzasida 1961-yildan boshlab sug'oriladigan yerlar maydonining muttasil ravishda ortib borishi, suv omborlar barpo etilishi, shaharlar va sanoat obyektlarining ko'payishi, aholi sonining o'sishi natijasida Amudaryo va Sirdaryo yil sayin Orolga kam suv quya boshladi, aksincha, ko'l yuzasidan bug'lanish miqdorining ortib borishi oqibatida ko'l suv sathi pasayib, asosiy qismi quruqlikka aylandi.

2005-yildan so'ng Orolga Amudaryo suvining yetib bor- masligi oqibatida 50 ming km² qismi quruqlikka aylanib, eol qum relyefi shakllanib, ko'l qismida tipik sho'rxoklar mintaqasi vujudga keldi. Shunday qilib, sobiq dengizning qurigan qismida o'ziga xos tabiiy komponentlarga ega bo'lgan yangi „Orolqum“ cho'li paydo bo'ldi. Orolning qurigan qismida bir-biridan ajralib qolgan uchta — Shimoliy, Sharqiy va G'arbiy Orollar saqlanib qolgan edi. Lekin so'nggi yillarda bug'lanish tufayli Sharqiy Orol suv sathi pasayib, hozir qurib qolib, o'rni sho'rxok, sho'rxok-botqoqqa aylanib qoldi. G'arbiy qismidagi nisbatan chuqur ko'l ma'lum vaqtgacha saqlanib qolishi mumkin.

Orol dengizining qurigan qismi tuz makoniga aylanib, atrof muhitga jiddiy xavf tug'dirmoqda. Shamol tuzlarni to'zitishi oqibatida Orolbo'yi hududlariga tuz yog'ini yog'moqda. Bu esa iqtisodiyotga, aholi salomatligiga salbiy ta'sir etmoqda. Orolning qurigan qismidan tuz aralash chang-to'zon uzoq masofalarga, hatto, O'rta Osiyo tog'laridagi muzliklar yuzasiga tushib, uning erishini tezlashtirmoqda. Tuz yomg'iri, ayniqsa, unga yaqin bo'lgan hududlarga katta iqtisodiy va ekologik zarar keltirmoqda. Orolning qurigan qismi yerusti tuzilishi jihatidan eng yosh tekislik bo'lib, eol qumliklari va sho'rxoklardan iborat. Eol qumliklari barxanlardan, egri-bugri shakldagi qumliklardan iborat bo'lib, sho'rxoklar orasida chuqurligi 0-1 m ga yetuvchi botiqchalar mavjud. Orolning qurigan qismida hozir 200 ming gektar maydonga saksovul, juzg'un va boshqa o'simliklar barpo etilib, qum ko'chishining oldi olinmoqda.

Bu borada 2014 yil oktyabrida Urgench shahrida Orol dengizi muammolariga bag'ishlangan xalqaro anjumanda kelishuv imzolangan. Anjuman Orolni qutqarish xalqaro fondi tashabbusi bilan o'tkazilgan. Anjumanda ishtirok etgan BMT Bosh kotibi Pan Gi Mun dunyo jamoatchiligini Orolni qutqarishga chaqirgan 2018 yilning 27 noyabr kuni Nyu-York shahridagi BMT qarorgohida BMTning Orolbo'yi mintaqasi uchun inson xavfsizligi bo'yicha ko'psheriklik trust fondi faoliyati boshlanishiga bag'ishlangan yuqori darajadagi tadbir bo'lib o'tadi.

Tadbir O'zbekiston Respublikasi, Norvegiya va Yaponiya hukumatlari tomonidan BMTning inson xavfsizligi bo'yicha bo'limi, BMTning O'zbekistondagi mamlakat guruhi va BMTning ko'psheriklik maqsadli jamg'armasi bilan hamkorlikda tashkil etiladi. Yuqori darajadagi tadbir BMT shafeligida O'zbekistonning Orolbo'yi mintaqasi uchun Inson xavfsizligi bo'yicha ko'psheriklik trust fondi (IXKTF) faoliyatini rasmiy boshlanishiga bag'ishlangan. Tadbir davomida inson xavfsizligi konsepsiyasini qo'llash orqali Orol inqirozi natijasida aziyat chekkan aholining talab va ehtiyojlari tahlil qilish va ularni ta'minlashga asoslangan jamg'armaning strategiyasi dasturi taqdim etiladi. Shuningdek, milliy va

mintaqaviy chegaralardan allaqachon chiqib bo'lgan va borgan sari butun xalqaro hamjamiyatning harakatlarini birlashtirishni talab qilayotgan Orol dengizining ekologik inqiroziga xalqaro jamoatchilik va donor mamlakatlar e'tiborini qaratish tadbirining yana bir maqsadidir. 2018 yilning 22 iyun kuni Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasi Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, barqarorlik va doimiy rivojlanishni ta'minlash maqsadida mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash haqidagi 72/283 raqami ostida Rezolyutsiyani qabul qildi.

Rezolyutsiyada Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida yanada qalin va keng muvofiqlashtirilgan hamkorlikning ahamiyati ta'kidlangan va a'zo davlatlarga, jumladan, "Orol dengizini qurishining ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini yumshatishga yo'naltirilgan Markaziy Osiyo davlatlarining sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlash" haqidagi murojaat o'rin olgan. Rezolyutsiyada BMT tizimidagi ixtisoslashgan muassasalar, jamg'armalar va dasturlarga "Markaziy Osiyodagi mintaqaviy hamkorlik, integratsiyalashuv va barqaror rivojlanishning ustuvorliklarini qo'llab-quvvatlashda o'zlarining dastur va tadbirlarini kelishib olishga" qat'iy da'vat o'rin olgan. Qayd etish joizki, O'zbekiston hukumati yuqorida zikr etilgan yo'nalishlar, shu jumladan, Orolbo'yi mintaqasini rivojlantirish bo'yicha 2017-2021 yillarga mo'ljallangan Davlat dasturi doirasida qator dasturlarni amalga oshirib kelmoqda. Jamg'armaning maqsadi – Fondning birlashgan Strategiyasi asosida muvofiqlashtirilgan donorlik ko'magini jalb qilish yo'li bilan ushbu sa'y-harakatlarni to'ldirishdan iborat. Jamg'arma, shuningdek, Orolbo'yining eng zaif va uzoq hududlariga va hamjamiyatlar bilan bevosita ishlashga ko'proq e'tiborni qaratadi.

Xulosa qilib aytganda, Orolni qutqarish bo'yicha davlatimiz barcha chora tadbirlarni ko'rmoqda. Bunga shuningdek Yevropa rivojlangan davlatlari ham qarab turgani yo'q. O'z fikr va mulohazalarini berib kelmoqda. Maqsad bitta, Orolni, ekologiyani yaxshilash. Orol hududlaridagi aholiga zarar yetkazilishining oldini olishdan iboratdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ramazonov B.R., Kuziev R. Evolution of soils of the aral sea area under the influence of anthropogenic desertification european science review № 1-2 2018 JanuaryFebruary pp. 24-28.

2. Ramazonov B.R., Kuziev R.K. Soils of the dried part of the aral sea and problems of desertification International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol.24, Issue 04 2020 ISSN: 1475-7192. A web based peer reviewed publication for mental health practitioners, consumers & applied researchers. www.psychosocial.com Hampstead Psychological Associates Road, London NW1 7 JA United Kingdom. Page 4134- 4146.

3. Ramazonov B.R., Mutalov K.A., Fayziev V.B., Koraev S.B. Morphogenetic characteristics and biological activity of takyr and meadow soils of the republic of Karakalpakstan (On the example of soils of Chimbay district). Journal of Critical Reviews Taiwan. ISSN-2394-5125 Vol 7, Issue 5, 2020. Page 242-249.